

**BIZNESNI BOSHLASHDA DAVLAT XIZMATLARINI KOMPLEKS
TARZDA KO'RSATISH: "BIZNESNI 15 DAQIQADA BOSHLASH"
TAMOYILI TAHLILI**

Xalikov Muxriddin Sadulla uli

Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquqiy hamkorlik boshqarmasi xodimi
E-mail: xalikov.m95@gmail.com

Annotatsiya: *Maqola O'zbekistonda tadbirkorlik muhitini yaxshilashga qaratilgan davlat islohotlarini tahlil qiladi. Yangi Farmon (PF–214, 14.11.2025) doirasida tadbirkorlar uchun kompleks davlat xizmatlarini ko'rsatish, "Biznesni 15 daqiqada boshlash" tamoyili va elektron xizmatlar samaradorligini ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Farmonning iqtisodiy, huquqiy va ma'muriy ahamiyati ham tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *tadbirkorlik, davlat xizmatlari, lisenziyalash, elektron xizmatlar, YaTT, "Biznesni 15 daqiqada boshlash".*

Kirish. O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish davlat siyosatida ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Yangi iqtisodiy va huquqiy islohotlar natijasida tadbirkorlik muhiti soddalashtirilmoqda. 2025 yil 14 noyabrda qabul qilingan PF–214-sonli Prezident Farmoni bu jarayonni tizimli tarzda amalga oshirishga qaratilgan.

Davlat xizmatlarini kompleks ko'rsatish. "Biznesni 15 daqiqada boshlash" tamoyili 2026 yil 1 yanvardan tadbirkorlar uchun davlat ro'yxatidan o'tish jarayonida quyidagi xizmatlar bir vaqtning o'zida taqdim etiladi:

	Xizmat nomi	Ta'rif
	Elektron raqamli imzo	Hujjatlarni elektron imzolash imkoniyati
	Bank	Ochilishi va faollashtirilishi

	hisobvaraqlari	
	Lisenziya/ruxsat noma	Ariza yoki xabarnoma yuborish
	Ko'chmas mulk ijara shartnomasi	Ro'yxatdan o'tkazish va rasmiylashtirish
	QQS guvohnomasi	Soliq organlarida ro'yxatdan o'tish
	Onlayn nazorat- kassa	Xarid va ro'yxatdan o'tkazish
	Yuridik shaxs rahbari	"Yagona milliy mehnat tizimi"da hisobga qo'yish

Farmon tadbirkorlarning ma'muriy xarajatlarini 90 mlrd so'mgacha qisqartirish, davlat organlari bilan hamkorlikda vaqtini 15 kungacha tejash maqsad qilib belgilangan.

Ixtiyoriy xizmatlar va yagona QR kod tizimi. Ushbu Prezident farmoniga ko'ra:

- Tadbirkor har bir xizmatdan ixtiyoriy foydalanadi;
- Tanlangan xizmatlar uchun yagona QR kod orqali to'lov amalga oshiriladi.
- Bu tizim to'lov jarayonlarini avtomatlashtirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish va tadbirkorlar uchun qulaylik yaratish imkonini beradi.

Yangi huquqiy va iqtisodiy mexanizmlar yo'nalishida quyidagi bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, Avtomatlashtirilgan ma'lumotlar va YaTT:

- YaTTlarga firma nomiga ega bo'lishga ruxsat beriladi;

– Tadbirkorlarning ma'lumotlari o'zgarganda, lisenziya, ruxsatnoma va xabarnomalarga avtomatik bepul o'zgartirishlar kiritiladi.

Bundan tashqari, Tadbirkorlar uchun bir qator ma'muriy va huquqiy yengilliklar beriladi:

– 2026 yil 1 martdan boshlab, lisenziya va ruxsat berish sohasida huquqbuzarlik uchun yuridik shaxslarning mansabdor shaxslariga javobgarlik bekor qilinadi;

– “Lisenziya” axborot tizimida ixtiyoriy dastlabki baholash xizmati yo'lga qo'yiladi.

Ushbu sohadagi quyidagi statistik ma'lumotlar va konstitutsiaviy asoslarga to'xtalib o'tamiz.

Yil	YaTT soni	Faol tadbirkorlar (ming)	Ko'rsatkichlar oshayotgan yillik o'sish (%)
2023	1,100,000	850	12
2024	1,150,000	900	6
2025	1,200,000	950	5

Shu bilan birga, 2023-yilda yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 67-moddasiga asosan “Davlat qulay investitsiaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlaydi.

Tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli.

O'zbekiston Respublikasi hududida iqtisodiy makon birligi, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag'larning erkin harakatlanishi kafolatlanadi.

Monopol faoliyat qonun bilan tartibga solinadi va cheklanadi.”

“Biznesni 15 daqiqada boshlash” tamoyili asosida quyidagi yengilliklar amalga oshiriladi:

- tadbirkorlik muhitini soddalashtiradi va raqamlashtiradi;
- ma’muriy xarajatlar va vaqtni kamaytiradi;
- davlat organlari bilan hamkorlikda elektron xizmatlar va yagona QR kod tizimi orqali jarayonlarni avtomatlashtiradi;
- YaTT va kichik biznes sektorida rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi.
- Yangi Farmon va elektron xizmatlar tizimi O‘zbekistonda tadbirkorlik muhitini raqobatbardosh va samarali qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.